

MILLIY XALQ O'YINLARNING BOLA TARBIYASIDA AHMIYATI



O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich

ta'lif fakulteti o'qituvchisi **G.Roziqova**,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif

fakulteti 3- kurs talabasi **M.Tillayeva**

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy tarbiyasi haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqola, avvalo, milliy mentalitetimizni va milliy urf-odatlarimizni o'zida jamlaydigan o'zbek xalq o'yinlari, ularning jamiyatimizda va yosh avlodni tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida so'z yuritadi. Hozirgi zamон pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri xalq xazinalarini insonparvar pedagogik tarbiya tizimida qo'llash va ulardan mohirona foydalanish, bu bebaho, xalqchil, ma'naviy boyliklarni tarbiyachilarning har kungi ta'lif-tarbiyaviy ishlariga aylantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, maktabgacha ta'lif tashkiloti, harakat faoliyati, tarbiyachi, bola, sog'lomlashtirish.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, shunday degan edi: "Yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir". Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtida O'zbekiston pedagogik jamiyati tarbiyaning odatiy bo'lgan shakllari va usullarini izlab topish, o'sib borayotgan avlodda mustahkam umuminsoniy ishonch va qarashlarini shakllantirish; shaxsda milliy madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab-asrash tuyg'ularini o'stirishga diqqatini qaratmog'imiz lozim.

Milliy xalq o'yinlari, har bir xalqning tarixiy va madaniy merosi sifatida, uning turmush tarzini, urf-odatlarini, qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek xalqining milliy o'yinlari, nafaqat ko'ngil ochish va o'z vaqtini mazmunli o'tkazish vositasi, balki bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim omildir. Milliy o'yinlar orqali bola

nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ahloqiy, ma'naviy, va ijtimoiy jihatdan ham shakllanadi. Milliy xalq o'yinlarida, odatda, bolalar guruh bo'lib o'ynaydilar. Bu esa ularda jamoaviylik, bir-biriga yordam berish, rahbarlik va izzatni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlarda qatnashish orqali bolalar bir-biri bilan aloqa o'rnatish, shuningdek, jamiyatda qanday o'zaro munosabatda bo'lism kerakligini o'rganadilar. Misol uchun, "yengil kuchlar" yoki "tortishish" o'yinlarida bolalar g'alaba va mag'lubiyatni qanday qabul qilishni, hamkorlikni va raqobatni qanday muvozanatlashtirishni o'rganadilar. Milliy o'yinlar bolalarda ijobiy emotsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. G'alaba qozongan vaqtida bolalarda ishonch va o'ziga bo'lgan hurmatni oshiradi, mag'lubiyatda esa sabr-toqat, kamtarlik va xato qilishni o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, o'yinlar bolalarni do'stona munosabatlar o'rnatishga va stressni boshqarishga o'rgatadi.

Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A. Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy xalq o'yinlari maktabgacha yoshdag'i bolalarga o'zgacha xushnudlik ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bolalar orasida qo'llanaoladigan va bolalar zavq bilan o'ynaydigan o'yinlar:

1.Arqon tortish. Bu o'yin bolalarda tez harakat qilishni, chaqqonlikni, sabr-toqatlik bilan harakat qilishni tarbiyalaydi. O'yin ko'proq jamoa bo'lib harakat qilish, chidamlilik malakalarini oshirishga yordam beradi.

2.Oq terakmi, ko'k terak. O'yin tez yugurishni, diqqatni, sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin bolalarni ahil bo'lib harakat qilishga, tezda to'g'ri yo'nalishni olishga o'rgatadi. O'yinni o'ziga xos harakati tez yugurish va zanjiri uzish.

3.Tapur-tupir qaldirg'och. Katta yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda sezgirlik, idrok qilish, eshitish va qabul qilish, chidamkorlik, kuch, tezkorlik,

qayishqoqlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinni o'ziga xos harakati sekin va aniq yurishdir.

4.Echki bolalar. O'rta yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda diqqat, sezgirlik malakalarini tarbiyalaydi. O'yin bolalarda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya harakatlarini rivojlantiradi. O'yining asosiy harakati yugurish hisoblanadi.

5. Qidirib top kichik yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda diqqat-e'tibomi, sezgirlik qobilyatlarini tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda milliy xalq o'yinlari bola tarbiyasida ko'plab foydali jihatlarni o'z ichiga oladi. Ular bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga, shuningdek, milliy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun, bu o'yinlarni bola tarbiyasida muhim vosita sifatida qo'llash juda zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. / T.S. Usmanxodjayev
- 2.N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2017yil
- 3.Sh.Nurmatova, Sh.T.Xasanova, D.E.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. Toshkent 2010. Cho'lpox nashriyoti.
- 4.“Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo'llanma. T; 2001.